

FRANSIYANING MARKAZIY OSIYODAGI TASHQI SIYOSATINING USTUVORLIKLARI

Saydullayev Sirojiddin Asatullayevich

Alfraganus universiteti, Ijtimoiy fanlar fakulteti

“Xalqaro munosabatlar va tarix” kafedrası o‘qituvchisi

sirojiddin.asatullayevich@mail.ru

Tel: 95-794-07-90

Annotatsiya: Ushbu maqolada Fransiyaning Markaziy Osiyo mintaqasidagi tashqi siyosiy strategiyasi va uning asosiy ustuvor yo‘nalishlari tahlil qilinadi. Maqolada Fransiyaning Qozog‘iston, O‘zbekiston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmaniston bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy hamkorlikni rivojlantirishga bo‘lgan yondashuvi yoritiladi. Energetika xavfsizligi, tabiiy resurslardan foydalanish, transport-logistika yo‘laklari, xavfsizlik, ta’lim va madaniy diplomatiya masalalari asosiy ustuvorliklar sifatida ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Fransiya, Markaziy Osiyo, tashqi siyosat, geosiyosat, energiya xavfsizligi, strategik hamkorlik, Yevropa Ittifoqi, xavfsizlik masalalari, madaniy diplomatiya, ko‘p vektorli siyosat.

Abstract: This article analyzes France's foreign policy strategy in the Central Asian region and its main priorities. The article highlights France's approach to developing political, economic and cultural cooperation with Kazakhstan, Uzbekistan, Kyrgyzstan, Tajikistan and Turkmenistan. The issues of energy security, use of natural resources, transport and logistics corridors, security, education and cultural diplomacy are considered as key priorities.

Keywords: France, Central Asia, foreign policy, geopolitics, energy security, strategic cooperation, European Union, security issues, cultural diplomacy, multi-vector policy.

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida Markaziy Osiyo mintaqasi yirik xalqaro siyosiy aktorlar manfaatlari to‘qnashadigan strategik hudud sifatida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mintaqaning boy tabiiy resurslari, qulay geosiyosiy joylashuvi, Yevropa va Osiyo o‘rtasidagi transport-tranzit yo‘laklaridagi o‘rni hamda xavfsizlik bilan bog‘liq muammolar Yevropaning yetakchi davlatlaridan biri bo‘lmish Fransiyaning bu hududga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirmoqda. Shu sababli Fransiyaning Markaziy Osiyodagi tashqi siyosati va uning ustuvor yo‘nalishlarini

o'rganish zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimini mufassal tushunishda muhim ilmiy ahamiyatga ega. Fransiya Yevropa Ittifoqi doirasida faol tashqi siyosat yurituvchi davlatlardan biri bo'lib, Markaziy Osiyoda asosan siyosiy muloqotni mustahkamlash, iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish, energetika xavfsizligini ta'minlash hamda mintaqaviy barqarorlikni qo'llab-quvvatlashga intilmoqda. Fransiya o'z tashqi siyosatida "yumshoq kuch" instrumentlaridan bo'lgan ta'lim, madaniyat, ilm-fan va gumanitar aloqalardan faol foydalanib, mintaqa davlatlari bilan uzoq muddatli sheriklik munosabatlarini shakllantirishga harakat qilmoqda. Mazkur maqolaning dolzarbligi shundaki, Markaziy Osiyo bo'yicha tadqiqotlarda ko'pincha Rossiya, Xitoy va AQShning ta'siri markaziy o'rinda tursa-da, Fransiyaning nisbatan mustaqil va muvozanatli tashqi siyosiy yondashuvi yetarlicha chuqur tahlil qilinmaydi. Holbuki, Fransiyaning mintaqadagi diplomatik tashabbuslari, investitsion loyihalari hamda xavfsizlik sohasidagi hamkorligi mintaqadagi davlatlari, xususan O'zbekiston uchun muhim imkoniyatlar yaratmoqda. Shu sababli ushbu maqola Fransiyaning Markaziy Osiyodagi tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlari, maqsadlari va ularning mintaqaviy hamda global ahamiyatini kompleks tahlil qilishga qaratilgan.

METODLAR: Mazkur maqolada sifat va miqdoriy tahlil usullari uyg'unlashgan holda qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv asosida Fransiyaning Markaziy Osiyodagi tashqi siyosiy faoliyati kompleks tahlil qilindi. Qiyosiy metod orqali Fransiyaning mintaqadagi siyosati boshqa yirik xalqaro aktorlar yondashuvlari bilan taqqoslandi. Tarixiy-analitik metod yordamida Fransiya-Markaziy Osiyo munosabatlarining shakllanish va rivojlanish bosqichlari o'rganildi. Kontent-tahlil usuli orqali rasmiy hujjatlar, strategiyalar, nutqlar va ochiq manbalar tahlil qilinib, olingan natijalar mantiqiy umumlashtirish asosida xulosalandi.

TAHLIL VA NATIJALAR: Fransiya va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi munosabatlar XX asr oxiri-XXI asr boshlarida, mintaqadagi davlatlarining mustaqillikka erishishi bilan yangi bosqichga ko'tarildi. Sovet Ittifoqi parchalanganidan so'ng Fransiya Markaziy Osiyoni muhim siyosiy va strategik hudud sifatida baholab, ushbu davlatlar bilan diplomatik aloqalarni faol yo'lga qo'ya boshladi. Bu munosabatlar siyosiy muloqot, xavfsizlik, iqtisodiy hamkorlik va xalqaro tashkilotlar doirasidagi hamkorlik bilan tavsiflanadi. Fransiya va O'zbekiston o'rtasida diplomatik munosabatlar 1992-yil 1-martda o'rnatilgan. 1993-yilda Prezident Islom Karimovning Fransiya tashrifi chog'ida imzolangan hukumatlararo kelishuvlar ikki davlat munosabatlarining huquqiy asosini yaratdi. 2001-yil 11-sentabrdan so'ng Fransiyaning Afg'onistondagi harbiy ishtiroki Toshkent bilan siyosiy muloqotni

yanada mustahkamlashga xizmat qildi¹. Fransiyaning Turkmaniston bilan aloqalari ham izchil rivojlangan. Prezident Fransua Mitterranning 1994-yil aprel oyida Ashxobodga tashrifi davomida Fransiya diplomatik vakolatxonasi ochish to'g'risida qaror qabul qilindi va u 1999-yilda elchixona maqomiga ko'tarildi. Fransiya Turkmanistonning betaraflik maqomini tan oluvchi BMT rezolyutsiyasining hammuallifi bo'ldi va bu rezolyutsiya 2015-yilda yana ovoz berishsiz qabul qilindi. 2011-yildan buyon tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida muntazam maslahatlashuvlar o'tkazib kelinmoqda². Tojikiston va Fransiya o'rtasidagi diplomatik munosabatlar 1992-yil 3-martda o'rnatilgan. 2001-yilda Dushanbeda Fransiya elchixonasi ochilgan bo'lsa, 2013-yilda Tojikistonning Parijdagi elchixonasi faoliyat boshladi³. Fransiya Qirg'iziston bilan 1992-yil fevral oyida diplomatik aloqalar o'rnatib, 1994-yilda Do'stlik va hamkorlik shartnomasini imzoladi. 2001-yildan keyin Bishkekda Afg'onistondagi operatsiyalarni qo'llab-quvvatlash uchun fransuz harbiy kontingenti joylashtirilishi munosabatlarni faollashtirdi⁴. Fransiya va Qozog'iston o'rtasidagi munosabatlar 1992-yil 25-yanvarda boshlangan bo'lib, 1993-yilda Prezident Mitterranning tashrifi davomida asosiy kelishuvlar imzolandi. 2008-yilda strategik sheriklik o'rnatilishi va 2010-yilda Prezidentlar komissiyasining tashkil etilishi ikki tomonlama aloqalarga yangi sur'at bag'ishladi⁵.

Fransiya va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi munosabatlarning shakllanishi shartli ravishda ikki bosqichga bo'linadi. Birinchi bosqich XX asrning 90-yillarini qamrab olib, bu davrda Fransiyaning yangi mustaqil bo'lgan Markaziy Osiyo davlatlari bilan o'zaro aloqalari konseptual jihatdan shakllandi. Ushbu davrda hamkorlik asosan ikki tomonlama xarakterga ega bo'lib, mintaqaviy integratsiyaga yetarlicha e'tibor qaratilmadi. Ikkinchi bosqich esa XXI asr boshidan hozirgi kungacha bo'lgan davrni o'z ichiga olib, bu davrda Fransiyaning mintaqaga nisbatan yondashuvi tubdan o'zgardi va strategik hamkorlikni shakllantirishga yo'naltirildi⁶. Mazkur bosqichda Fransiyaning Markaziy Osiyodagi tashqi siyosiy strategiyasi bir necha asosiy yo'nalishlar bilan tavsiflanadi:

- Birinchidan, xavfsizlik masalalari, Afg'onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish va uni mintaqaviy iqtisodiy jarayonlarga integratsiya qilish Fransiya uchun muhim ustuvorlikka aylandi. O'zbekiston tashabbusi bilan ilgari surilgan Afg'onistonni

¹ France and Uzbekistan <https://www.diplomatie.gouv.fr/en/country-files/uzbekistan/france-and-uzbekistan-65051/>

² France and Turkmenistan <https://www.diplomatie.gouv.fr/en/country-files/turkmenistan/france-and-turkmenistan-65074/>

³ Relations of the Republic of Tajikistan with the French Republic <https://www.mfa.tj/en/main/view/177/bilateral-relations-of-tajikistan-with-france>

⁴ France and Kyrgyzstan <https://www.diplomatie.gouv.fr/en/country-files/kyrgyzstan/france-and-kyrgyzstan-65039/>

⁵ France and Kazakhstan <https://www.diplomatie.gouv.fr/en/country-files/kazakhstan/france-and-kazakhstan-65038/>

⁶ Azer Adygezalov. (2022). Prospects for the development of Central Asian-French relations. UzDaily <https://www.uzdaily.uz/en/prospects-for-the-development-of-central-asian-french-relations/>

mintaqaviy hamkorlikka jalb etish g'oyasi Fransiya tomonidan to'liq qo'llab-quvvatlandi.

- Ikkinchidan, energetika va tranzit salohiyati Fransiyaning e'tibor markazida bo'ldi. Markaziy Osiyo davlatlarining Kaspiy mintaqasi orqali Yevropaga energiya resurslarini yetkazib berishdagi roli Yevropa Ittifoqi, jumladan Fransiya uchun strategik ahamiyat kasb etdi. Shu sababli Fransiya Yevropa Ittifoqining "2007-yilga mo'ljallangan Yangi Hamkorlik Strategiyasi"ni faol ilgari surgan asosiy davlatlardan biri bo'ldi⁷.

- Uchinchidan, Fransiya Yevropa Ittifoqi doirasida Markaziy Osiyoga nisbatan ikki darajali – ikki tomonlama va mintaqaviy yondashuvni qo'llab-quvvatladi. 2008-yilda Fransiyaning Yevropa Ittifoqiga raisligi davrida "Markaziy Osiyo uchun YI – Qonun ustuvorligi tashabbusi"ning ishga tushirilishi⁸, YI-Markaziy Osiyo forumining tashkil etilishi bu yo'nalishdagi muhim qadam bo'ldi. 2019-yilda qabul qilingan "Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo: hamkorlikni mustahkamlash uchun yangi imkoniyatlar" strategiyasi Fransiyaning mintaqaga bo'lgan uzoq muddatli qarashlarini yanada tizimlashtirdi⁹. Ushbu strategiyada barqarorlik, farovonlik va mintaqaviy hamkorlik asosiy ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilandi. Demokratiya, inson huquqlari, yashil iqtisodiyot, raqamlashtirish, savdo va investitsiyalarni rivojlantirish Fransiya va Yevropa Ittifoqining mintaqadagi asosiy manfaatlari sifatida namoyon bo'ldi.

Fransiya va Qozog'iston o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik so'nggi yillarda yangi bosqichga ko'tarildi. Ushbu hamkorlik faqat savdo hajmining o'sishi bilangina emas, balki strategik yo'nalishlarning kengayishi va uzoq muddatli barqaror rivojlanishga yo'naltirilgani bilan ajralib turadi. Global beqarorlik, geosiyosiy taranglik va ta'minot zanjirlaridagi uzilishlar sharoitida Fransiya va Qozog'iston o'rtasidagi sheriklik o'zaro manfaat va ko'p tomonlama yondashuvga asoslangan model sifatida namoyon bo'lmoqda. Avvalo, iqtisodiy ko'rsatkichlar hamkorlikning real natijalarini ko'rsatadi. Savdo aylanmasi 5 milliard yevrodan oshgani Fransiyaning Qozog'istondagi yirik investor va muhim savdo hamkor sifatidagi o'rni mustahkamlanayotganidan dalolat beradi. Qozog'iston Fransiya uchun neft, gaz va uran kabi strategik xomashyo yetkazib beruvchi sifatida muhim bo'lsa, Fransiya Qozog'iston iqtisodiyotiga yuqori texnologiyalar, sanoat uskunalari va boshqaruv tajribasini olib kirayotgan yetakchi hamkorlardan biri hisoblanadi. Parijda imzolangan 12 ta idoralararo bitim va 2,2

⁷ Hoffmann, K. (2010). The EU in Central Asia: successful good governance promotion? Third World Quarterly, 31(1), 87–103.

⁸ Rico Isaacs. (2009). The EU's Rule of Law Initiative in Central Asia. EUCAM Policy Brief 9, <https://eucentralasia.eu/the-eus-rule-of-law-initiative-in-central-asia/>

⁹ Joint Communication on the EU and Central Asia: New opportunities for a stronger partnership. 15.05.2019. https://www.eeas.europa.eu/eeas/joint-communication-eu-and-central-asia-new-opportunities-stronger-partnership_en

milliard dollarlik shartnomalar bu jarayonning “boshlang‘ich nuqtasi” emas, balki allaqachon shakllangan o‘svuchi tendensiyaning mantiqiy davomi sifatida baholanadi. Hamkorlikning muhim yo‘nalishlaridan biri suv resurslarini boshqarish. Orol dengizi va Balxash ko‘li bo‘yicha amalga oshirilayotgan qo‘shma loyihalar iqtisodiy manfaatlarni ekologik barqarorlik bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan. Fransiyaning texnik va moliyaviy ko‘magi Qozog‘istonda suvdan foydalanish samaradorligini oshirish, mintaqaviy ekologik xavflarni kamaytirish orqali uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashga xizmat qiladi. Bu yondashuv Fransiya–Qozog‘iston hamkorligining faqat daromadga emas, balki resurslarni oqilona boshqarishga asoslanganini ko‘rsatadi. Sun‘iy intellekt va raqamli iqtisodiyot ham ikki tomonlama hamkorlikning yangi drayveriga aylanmoqda. Fransiyaning “insoniyat uchun SI” tamoyiliga asoslangan siyosati Qozog‘istonning raqamli transformatsiya strategiyasi bilan mos keladi. Astana Hub‘da Tomorrow School‘ning ochilishi, akademik va sanoat aloqalarining kuchayishi Qozog‘istonni mintaqaviy texnologik markazga aylantirishga xizmat qilsa, Fransiya uchun yangi bozorlar va innovatsion hamkorlik imkoniyatlarini yaratadi. Energetika, xususan atom energetikasi sohasidagi hamkorlik esa strategik ahamiyatga ega. EDF va Orano bilan bog‘liq tajriba Fransiyaning Qozog‘istonga faqat texnologiya emas, balki to‘liq institutsional model tizimini taklif qilayotganini ko‘rsatadi; bu Qozog‘istonning uzoq muddatli energiya xavfsizligi va sanoat rivoji uchun muhim. Transkaspiy o‘rta yo‘lagi loyihasida Fransiya kompaniyalarining ishtiroki logistika va savdo diversifikatsiyasini kuchaytiradi. Bu yo‘nalish Qozog‘istonning Yevropa bilan aloqalarini mustahkamlab, Yevropa Ittifoqi bilan integratsiyani chuqurlashtiradi¹⁰.

Fransiya va Qirg‘iziston o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlik 2024-yilning to‘rtinchi choragi yakunlariga ko‘ra savdo ko‘rsatkichlari orqali tahlil qilishga harakat qilamiz. Mazkur davrda Fransiya Qirg‘izistonga 23,9 mln yevrolik mahsulot eksport qilgan, Qirg‘izistondan esa atigi 75,1 ming yevrolik mahsulot import qilgan. Natijada Fransiya foydasiga 23,8 mln yevrolik ijobiy savdo balansi shakllangan. Bu ko‘rsatkichlar savdo hajmining mutlaq qiymatda kichik bo‘lishiga qaramay, tomonlar o‘rtasidagi savdo oqimlarining asimmetrik xarakterini ko‘rsatadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, 2023-yilning to‘rtinchi choragi va 2024-yilning to‘rtinchi choragi oralig‘ida Fransiyaning Qirg‘izistonga eksporti keskin qisqargan. Eksport hajmi 110 mln yevrodan 23,9 mln yevroga tushib, 86,6 mln yevroga yoki 78,4 foizga kamaygan. Shu bilan birga, Fransiyaning Qirg‘izistondan importi yanada keskin pasayib, 7,15 mln yevrodan 75,1 ming yevroga tushgan, ya‘ni 7,07 mln yevro yoki 98,9 foizlik

¹⁰ Kazakh-French Partnership Rooted in Multilateralism, Sustainability, and Shared Ambitions. 18 April 2025. <https://astanatimes.com/2025/04/kazakh-french-partnership-rooted-in-multilateralism-sustainability-and-shared-ambitions/>

qisqarish kuzatilgan. Bu holat ikki mamlakat o'rtasidagi savdo aloqalarida vaqtinchalik susayish yoki tarkibiy omillar ta'sirida yuzaga kelgan nomutanosiblikni anglatadi. 2024-yilning to'rtinchi choragi holatiga ko'ra, Fransiyaning Qirg'izistonga asosiy eksport mahsulotlari kimyo sanoati mahsulotlari (5,88 mln yevro), mashina va uskunalar (5,26 mln yevro) hamda avtomobillar, tirkamalar va yarim tirkamalar (3,42 mln yevro)dan iborat bo'lgan. Ushbu tarkib Fransiya eksportining texnologik va sanoat yo'nalishiga ega ekanini ko'rsatadi. Demak, hamkorlik asosan yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar savdosiga tayangan. Fransiyaning Qirg'izistondan importi juda cheklangan bo'lib, qishloq xo'jaligi va ovchilik mahsulotlari (26,1 ming yevro), mashina va uskunalar (16,7 ming yevro) hamda boshqa ishlab chiqarilgan mahsulotlar (14,6 ming yevro)ni o'z ichiga olgan. Bu Qirg'iziston eksportining hajm jihatdan kichik va diversifikatsiya darajasi past ekanini anglatadi. O'sish dinamikasi nuqtayi nazaridan qaralganda, Fransiya eksportidagi yillik pasayish asosan avtomobillar va tirkamalar eksportining 30,8 mln yevroga (-90%), mashina va uskunalarining 22,2 mln yevroga (-80,8%) hamda elektr jihozlarining 8,8 mln yevroga (-93,9%) qisqarishi bilan izohlanadi. Import tomonida esa pasayish mashina va uskunalar, boshqa ishlab chiqarilgan mahsulotlar hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining keskin o'zgarishi bilan bog'liq¹¹.

Fransiya va Tojikiston o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik so'nggi yillarda izchil ravishda rivojlanib, savdo, investitsiya va sanoat kooperatsiyasi yo'nalishlarida muhim natijalarga erishilmoqda. Ikki davlat o'rtasidagi savdo aloqalarining faollashuvi, 2021-yilda yaqqol namoyon bo'ldi. Jumladan, 2021-yilning yanvar-noyabr oylarida Tojikiston va Fransiya o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 10,2 million AQSh dollarini tashkil etib, bu ko'rsatkich 2020-yilga nisbatan 1,7 baravarga oshgan. Mazkur raqamlar ikki tomonlama savdo munosabatlarining barqaror o'sish trendiga ega ekanini ko'rsatadi. Investitsiyaviy hamkorlik Fransiya-Tojikiston iqtisodiy aloqalarining eng asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. 2021-yilda fransuz investitsiyalarining Tojikiston iqtisodiyotiga kiritilgan hajmi 19 million AQSh dollariga teng bo'lgan. 2007-2021-yillar oralig'ida esa Fransiya tomonidan Tojikistonga yo'naltirilgan jami investitsiyalar 120 million AQSh dollarini tashkil etgan. So'nggi ma'lumotlarga ko'ra, umumiy fransuz investitsiyalari hajmi 125 million AQSh dollariga yetgan bo'lib, shundan 77,3 million AQSh dollari to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hisoblanadi. Bu holat Fransiya kapitalining Tojikiston iqtisodiyotida uzoq muddatli va strategik manfaatlarga ega ekanini anglatadi. Hozirgi kunda Tojikiston hududida 7 ta fransuz kompaniya va tashkilotlari faoliyat

¹¹ France (FRA) and Kyrgyzstan (KGZ) Trade | The Observatory of Economic Complexity
<https://oec.world/en/profile/bilateral-country/fra/partner/kgz>

yuritmoqda. Ular orasida ACTED, Auchan (Schiever), Bactria Cultural Center, Géres, Michelin, Tractebel va Yves Rocher kabi subyektlar mavjud. Avvalgi yillarda Airbus, Alstom, Schneider Electric, Total, Vinci va boshqa ko‘plab fransuz kompaniyalari Tojikistonda ijtimoiy-iqtisodiy, sanoat, infratuzilma, muhandislik va investitsiya loyihalarini amalga oshirishda ishtirok etgan. Bu esa fransuz biznesining Tojikiston bozoriga bo‘lgan qiziqishi keng ko‘lamli va tarmoqlararo ekanini ko‘rsatadi. Ishbilarmonlik aloqalarini institutsional rivojlantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. 2015-yil aprel oyida MEDEF International tashkiloti delegatsiyasining Dushanbega tashrifi hamda shu yil noyabr oyida Tojikiston ishbilarmon delegatsiyasining Parijga safari natijasida Hamkorlik Memorandumi imzolandi va Fransiya–Tojikiston Biznes Kengashi tashkil etildi. Ushbu Kengash yig‘ilishlari deyarli har yili ikki davlat poytaxtlarida o‘tkazilib, tadbirkorlar o‘rtasidagi bevosita muloqotni mustahkamlab kelmoqda. 2019-yil 7-noyabrda Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmonning Fransiya rasmiy tashrifi doirasida qator muhim kelishuvlar imzolandi. TALCO va Fives Group o‘rtasida 200 million yevrolik hamkorlik bitimi, Airbus va Somon Air o‘rtasida vertolyotlar importi bo‘yicha kelishuv, farmatsevtika, savdo va IT-ta‘lim sohalaridagi bitimlar iqtisodiy aloqalarning yangi bosqichini boshlab berdi. 2024-yilda Fransiya bilan tashqi savdo aylanmasi 12,7 million AQSh dollarini tashkil etgani ham ikki tomonlama hamkorlikning barqaror rivojlanayotganini tasdiqlaydi¹².

Fransiya va Turkmaniston o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlik ko‘lamini 2024-yilning to‘rtinchi choragi yakunlariga ko‘ra savdo ko‘rsatkichlari orqali tahlil qilamiz. Ushbu davrda Fransiya Turkmanistonga 14,6 mln yevrolik mahsulot eksport qilgan va Turkmanistondan 2,72 mln yevrolik mahsulot import qilgan. Natijada Fransiya foydasiga 11,9 mln yevrolik ijobiy savdo balansi shakllangan. Bu ko‘rsatkich ikki mamlakat o‘rtasidagi savdo aloqalarida Fransiyaning ustun pozitsiyasini ko‘rsatadi. Dinamik tahlil shuni ko‘rsatadiki, 2023-yilning to‘rtinchi choragi va 2024-yilning to‘rtinchi choragi oralig‘ida Fransiyaning Turkmanistonga eksporti 18,8 mln yevrodan 14,6 mln yevroga tushib, 4,13 mln yevro yoki 22 foizga kamaygan. Fransiyaning Turkmanistondan importi 1,59 mln yevrodan 2,72 mln yevroga oshib, 1,13 mln yevro yoki 71,1 foizlik o‘sishni namoyon etgan. Bu holat savdo oqimlarida muayyan qayta muvozanatlashuv jarayoni borayotganidan dalolat beradi. 2024-yilning to‘rtinchi choragi holatiga ko‘ra, Fransiyaning Turkmanistonga asosiy eksport mahsulotlari avtomobillar, tirkamalar va yarim tirkamalar (6,11 mln yevro), kompyuter, elektron va optik mahsulotlar (1,81 mln yevro), metall bo‘lmagan boshqa

¹² Economic cooperation | Embassy of the Republic of Tajikistan to France
<https://mfa.tj/en/paris/view/5114/goods-turnover>

mineral mahsulotlar (1 mln yevro)dan iborat bo'lgan. Mazkur tarkib Fransiya eksportining sanoat va texnologik yo'nalishga ega ekanini ko'rsatib, transport va yuqori texnologiyali mahsulotlar o'rin egallayotganini tasdiqlaydi. Fransiyaning Turkmanistondan importi esa asosan oziq-ovqat sanoati mahsulotlari (2,6 mln yevro) hisobiga shakllangan. Bundan tashqari, kimyo mahsulotlari (108 ming yevro) va to'qimachilik sanoati mahsulotlari (3,27 ming yevro) ham import tarkibida mavjud. Bu Turkmanistonning Fransiya eksporti ko'proq xomashyo va qayta ishlangan oziq-ovqat mahsulotlariga tayanganini anglatadi. O'sish va pasayish omillariga to'xtaladigan bo'lsak, 2024-yilning to'rtinchi choragida Fransiya eksportidagi yillik qisqarish asosan mashina va uskunalar eksportining 4,63 mln yevroga (-82,7%), kimyo mahsulotlarining 3,15 mln yevroga (-77,2%) hamda asosiy farmatsevtika mahsulotlarining 2,63 mln yevroga (-92,4%) kamayishi bilan izohlanadi. Ayni paytda, Fransiya importidagi o'sish oziq-ovqat sanoati mahsulotlari importining 1,02 mln yevroga (65%), kimyo mahsulotlarining 99,4 ming yevroga va boshqa ishlab chiqarilgan mahsulotlarning 2,74 ming yevroga ko'payishi hisobiga yuzaga kelgan¹³.

Fransiya va O'zbekiston o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik so'nggi yillarda rivojlanib bormoqda. Ayniqsa Shavkat Mirziyoyevning Fransiya amalga oshirgan rasmiy tashriflarida ikki davlat o'rtasidagi o'zaro manfaatli aloqalar rivojida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yelisey saroyida bo'lib o'tgan muzokaralar diplomatik munosabatlar o'rnatilganining 30 yilligiga bag'ishlanib iqtisodiy hamkorlikni yanada chuqurlashtirishga bo'lgan qat'iy siyosiy irodani namoyon etdi. Bugungi kunda o'zbek-fransuz muloqoti izchil ravishda rivojlanib, iqtisodiyot, madaniyat va ta'lim kabi ko'plab sohalarda aloqalar mustahkamlanmoqda. Bu jarayon ikki tomonlama hamkorlik uchun yangi imkoniyatlarni ochib bermoqda. O'zbekistonning Fransiya bilan savdo-iqtisodiy aloqalari Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi tomonidan so'nggi sakkiz yil kesimida tahlil qilingan¹⁴. Tahlillarga ko'ra, O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar boshlanganidan buyon savdo aylanmasi 2017-yildagi 257,2 mln AQSh dollaridan 2024-yilda 1,13 mlrd dollarga yetib, 4,4 barobarga oshdi. 2021-yilda O'zbekiston Yevropa Ittifoqining GSP+ tizimidan foydalanuvchi davlat maqomini olgach, Fransiya meva-sabzavot, to'qimachilik mahsulotlari, gilamlar va ayrim elektr texnikasi eksporti barqaror o'sishni boshladi. 2024-yilda savdo aylanmasi 2023-yilga nisbatan 13,7 foizga oshib, eksport 795,1 mln dollarni, import esa 336,2 mln dollarni tashkil etdi. Fransiya investitsiyalarining O'zbekiston iqtisodiyotiga kirib kelishi ham ijobiy sur'atlarda davom etmoqda. Bugungi kunda

¹³ France (FRA) and Turkmenistan (TKM) Trade | The Observatory of Economic Complexity

<https://oec.world/en/profile/bilateral-country/fra/partner/tkm>

¹⁴ Obid Khakimov. (11-mart, 2025). CERR: New opportunities for France in cooperation with New Uzbekistan. Dunyo Information Agency <https://dunyo.info/en/analitika/tseir-novye-vozmozhnosti-francii-v-sotrudnichestve-s-novym-uzbekistanom>

mamlakatda fransuz kapitali ishtirokidagi qariyb 50 ta korxona faoliyat yuritmoqda va ularning soni so‘nggi yillarda deyarli to‘rt barobarga oshdi. Ushbu korxonalar tog‘-kon, sanoat, energetika, qurilish, qishloq xo‘jaligi va turizm sohalarini qamrab olgan. 2024-yilda Fransiyadan jalb qilingan investitsiya va kreditlar hajmi 36,3 mln dollarni tashkil etgan bo‘lsa, 2017-2024-yillarda umumiy ko‘rsatkich 654 mln dollarga yetdi. Energetika sohasida Samarqand viloyatida fransuz investitsiyalari asosida 100 MVt quvvatga ega quyosh elektr stansiyasi Total Eren bilan hamkorlikda barpo etildi. French Development Agency bilan birgalikda “yashil iqtisodiyot” dasturi doirasida chorvachilik va chiqindilarni boshqarish bo‘yicha bir qator loyihalar amalga oshirilmoqda. Uran qazib olish sohasida esa Orano tomonidan 500 mln dollargacha investitsiya kiritish rejalashtirilgan. O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlar iqtisodiyotning ochiqligi va diversifikatsiyasini ta‘minlab, fransuz biznesi uchun qulay muhit yaratdi. To‘qimachilik, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, farmatsevtika, vinochilik va turizm infratuzilmasi istiqbolli yo‘nalishlar sifatida ajralib turibdi. Chanel, Louis Vuitton va Kiabi kabi yirik brendlarni O‘zbekistonda ishlab chiqarishga jalb etish rejaları mavjud.

XULOSA

Mazkur maqolada olib borilgan tahlillar Fransiyaning Markaziy Osiyodagi tashqi siyosati ko‘p tomonlamali, moslashuvchan va uzoq muddatli strategik manfaatlarga asoslanganini ko‘rsatadi. Fransiyaning mintaqaga nisbatan yondashuvi an‘anaviy kuch siyosatidan ko‘ra, neoklassik realizm va liberal institutsionalizm uyg‘unligi sifatida namoyon bo‘ladi. Ya‘ni Fransiya bir tomondan o‘zining milliy manfaatlari bo‘lgan energiya xavfsizligi, resurslar, transport yo‘laklari va geosiyosiy muvozanatni ta‘minlashga intilsa, ikkinchi tomondan Yevropa Ittifoqi doirasida institutsional hamkorlik, normativ qadriyatlar va “yumshoq kuch” mexanizmlariga tayanadi. Ta‘lim, madaniyat, ilm-fan, gumanitar aloqalar va rivojlanish dasturlari Fransiyaning Markaziy Osiyodagi siyosatini boshqa yirik aktorlardan farqlovchi nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, Fransiyaning Markaziy Osiyodagi yondashuvi AQSh, Xitoy va Rossiya siyosatidan mazmunan farqlanadi. AQSh mintaqaga asosan xavfsizlik, demokratiya va geosiyosiy raqobat prizmasidan yondashsa, Xitoy iqtisodiy ekspansiya, infratuzilmaviy loyihalar va kreditlash orqali o‘z ta‘sirini kuchaytirmoqda. Rossiya esa tarixiy, madaniy va harbiy-siyosiy aloqalarga tayanib, mintaqani o‘zining an‘anaviy ta‘sir doirasi sifatida saqlab qolishga intiladi. Fransiya esa ushbu uch yondashuvdan farqli o‘laroq, keskin geosiyosiy raqobatga kirishmasdan, muvozanatli, pragmatik va ko‘p tomonlamali hamkorlikka asoslangan

siyosat olib bormoqda. Bu yondashuv Markaziy Osiyo davlatlari uchun muqobil sheriklik modeli sifatida namoyon bo‘ladi va ularning ko‘p vektorli tashqi siyosatini qo‘llab-quvvatlaydi.

Fransiya siyosatining cheklovlari va tanqidiy jihatlari ham mavjud. Birinchidan, Fransiyaning mintaqadagi iqtisodiy va savdo ko‘rsatkichlari ayrim davlatlarda nisbatan past bo‘lib, bu uning real ta‘sir doirasini cheklaydi. Ikkinchidan, harbiy-siyosiy resurslarning cheklanganligi Fransiyaning ko‘proq Yevropa Ittifoqi va ko‘p tomonlama institutlarga tayanishga majbur qilmoqda. Uchinchidan, Xitoyning iqtisodiy miqyosi va Rossiyaning tarixiy-institutsional ustunligi fonida Fransiyaning tashabbuslari ko‘pincha sekin va uzoq muddatli natijalarga yo‘naltirilgan bo‘lib, bu ba‘zi hollarda tezkor samara bermaydi. Inson huquqlari va demokratik qadriyatlar masalasidagi normativ yondashuv ayrim Markaziy Osiyo davlatlari bilan muloqotda murakkabliklar keltirib chiqarishi mumkin.

Global energetik transformatsiya, yashil iqtisodiyot, atom energetikasi, suv resurslarini boshqarish, raqamli texnologiyalar va sun‘iy intellekt sohalari Fransiya uchun mintaqada yangi strategik imkoniyatlar yaratmoqda. Transkaspiy transport yo‘lagi, mineral resurslar, ta‘lim va ilmiy hamkorlik yo‘nalishlari ham Fransiya-Markaziy Osiyo aloqalarining muhim drayverlariga aylanishi ehtimoldan xoli emas. Ayniqsa O‘zbekiston va Qozog‘iston bilan chuqurlashib borayotgan hamkorlik Fransiyaning mintaqadagi uzoq muddatli strategiyasining tayanch nuqtalaridan biri bo‘lib qoladi. Umuman olganda, Fransiyaning Markaziy Osiyodagi tashqi siyosati keskin raqobatdan ko‘ra muvozanat, hamkorlik va barqaror rivojlanishga yo‘naltirilgan model sifatida baholanishi mumkin. Bu model mintaqadagi davlatlari uchun nafaqat iqtisodiy va texnologik imkoniyatlar, balki xalqaro munosabatlarda tanlov erkinligini kengaytiruvchi omil bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Adygezalov, A. (2022). Prospects for the development of Central Asian–French relations. UzDaily. <https://www.uzdaily.uz/en/prospects-for-the-development-of-central-asian-french-relations/>
2. Embassy of the Republic of Tajikistan to France. (n.d.). Economic cooperation. <https://mfa.tj/en/paris/view/5114/goods-turnover>
3. European External Action Service. (2019, May 15). Joint communication on the EU and Central Asia: New opportunities for a stronger partnership. https://www.eeas.europa.eu/eeas/joint-communication-eu-and-central-asia-new-opportunities-stronger-partnership_en

4. Hoffmann, K. (2010). The EU in Central Asia: Successful good governance promotion? *Third World Quarterly*, 31(1), 87–103.
5. Isaacs, R. (2009). The EU's rule of law initiative in Central Asia (EUCAM Policy Brief No. 9). EUCAM. <https://eucentralasia.eu/the-eus-rule-of-law-initiative-in-central-asia/>
6. Kazakh-French partnership rooted in multilateralism, sustainability, and shared ambitions. (2025, April 18). The Astana Times. <https://astanatimes.com/2025/04/kazakh-french-partnership-rooted-in-multilateralism-sustainability-and-shared-ambitions/>
7. Khakimov, O. (2025, March 11). CERR: New opportunities for France in cooperation with New Uzbekistan. Dunyo Information Agency. <https://dunyo.info/en/analitika/tseir-novye-vozmozhnosti-francii-v-sotrudnichestve-s-novym-uzbekistanom>
8. Ministry of Europe and Foreign Affairs of France. France and Kazakhstan. <https://www.diplomatie.gouv.fr/en/country-files/kazakhstan/france-and-kazakhstan-65038/>
9. Ministry of Europe and Foreign Affairs of France. France and Kyrgyzstan. <https://www.diplomatie.gouv.fr/en/country-files/kyrgyzstan/france-and-kyrgyzstan-65039/>
10. Ministry of Europe and Foreign Affairs of France. France and Turkmenistan. <https://www.diplomatie.gouv.fr/en/country-files/turkmenistan/france-and-turkmenistan-65074/>
11. Ministry of Europe and Foreign Affairs of France. France and Uzbekistan. <https://www.diplomatie.gouv.fr/en/country-files/uzbekistan/france-and-uzbekistan-65051/>
12. Ministry of Foreign Affairs of the Republic of Tajikistan. Relations of the Republic of Tajikistan with the French Republic. <https://www.mfa.tj/en/main/view/177/bilateral-relations-of-tajikistan-with-france>
13. Observatory of Economic Complexity. France (FRA) and Kyrgyzstan (KGZ) trade. <https://oec.world/en/profile/bilateral-country/fra/partner/kgz>
14. Observatory of Economic Complexity. France (FRA) and Turkmenistan (TKM) trade. <https://oec.world/en/profile/bilateral-country/fra/partner/tkm>